



OLTIN HAQIDA

Oltin, pul, boylik tushunchalari bir-birini eslatadi. Masalan, oltin deganda katta boylik ko‘z oldimizga keladi. Bu nodir metallni deyarli hammamiz ko‘rganmiz, u bilan bog‘liq har xil voqealar, afsonalar va rivoyatlarni eshitganmiz. “Oltin” so‘zi qulorra xush yoqadi, o‘ziga ohanrabodek tortadi. Bu so‘z turkiycha “al” – qizil, xitoycha “tun”, “tung” so‘zlar qo‘shilishidan hosil bo‘lgan. “Qizil mis” degan ma’noni beradi. Aslida, oltin ham mis yoki temir kabi oddiy metall. Biroq ba’zi o‘ziga xosliklar uning qadrini oshiradi, odamlarning qadrdoniga aylantiradi. Toza oltin sariq rangda bo‘ladi. Boshqa rangli metallar, ko‘pincha, mis qo‘shilishi natijasida qizg‘ish tus oladi. Qadimda tillo tangalar xuddi shunday ko‘rinishda bo‘lgan. Issiqlik o‘tkazish darajasi yuqori,

elektr o‘tkazish qarshiligi past. Zichligi juda baland – 19621 kg metr kub. 1 kg og‘irlikdagi oltin 46 mm diametrli sharga jo bo‘ladi. Boshqacharoq aytganda, yosh qizchalar o‘ynaydigan to‘pcha hajmidagi oltin 1 kg chiqadi. Tillo zarralari bilan to‘ldirilgan bir litrli butilka 16 kg tosh bosadi. Og‘irlik oltinning ijobjiy xususiyatlaridan biridir. Chunki shu sababli oltinni ajratib olish, boshqa jinslardan tozalash oson kechadi. Bu metall juda cho‘ziluvchan. Bir gramm tilloni uch kilometrgacha cho‘zish mumkin. Ana shu cho‘ziluvchanlik sababli odamlar sof oltinni barmog‘ida ezib yoki tishlab ko‘rib sinaydi. Oltin eng inert, ya’ni faoliyatsiz metall hisoblanadi. Odatiy sharoitda juda ko‘p kislotalar unga ta’sir ko‘rsatolmaydi. Oltin oksidlar ham hosil qilmaydi. Boshqa oddiy metallar kabi atrof-muhit ta’sirida o‘zgaravermagani uchun ham qimmatbaho sanaladi. Oltin ayrim hollarda zaharga aylanadi. Masalan, buyrak, jigarda yig‘ilishi yallig‘lanish bilan bog‘liq turli kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

**Barno IBODULLAYEVA
UrDU qoshidagi 2-son Akademik
litsey o‘qituvchisi**

AHOLINI RO‘YXATGA OLİSH KENG QAMROVLILIGI BILAN AHAMIYATLIDIR



Har qanday mamlakat fuqarolari to‘g‘risidagi ma’lumotlar har qanday davlat milliy statistikasining muhim qismi sanaladi. Bunday ma’lumotlar ma’lum vaqt oralig‘ida aynan aholini ro‘yxatga olish tadbirlari orqali to‘planadi.

Aholini ro‘yxatga olish aholining demografik va ijtimoiy-

iqtisodiy tavsiflarini belgilovchi shaxsga doir ma’lumotlar yig‘ish bilan chegaralanib qolmasdan, uning yakuniga yetkazilishi hududlarni xaritalash, aholi punktlaridagi uylar ro‘yxatini tuzish imkonini beradi. Shaharcha, mahalla, qishloq va ovullar soni hamda ularning chegaralari, turar joylardagi mavjud shart-sharoitlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarga aniqlik kiritiladi. Yana ham aniqroq aytganda, turar va noturar joylarning aniq soni, holati, foydalanilmay yotgan yoki muddatini o‘tab bo‘lgan binolarni belgilab olish bilan tegishli hududlarda uy-joy, sanoat ob‘yektlarni qurish va ta’mirlash masalalariga oydinlik kiritish mumkin bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, Respublikaning yangi mukammal kadastr xaritasi yaratiladi.

Qo‘shko‘pir tuman statistika bo‘limi